



TAKROR VA UNING USLUBIY FUNKSIYASI (ENAXON SIDDIQOVA SHE'RLARI MISOLIDA)

Dilnavoz Abdurahimova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada takrorning funksiyasi muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat ekanligi shoira she'riyati asosida tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *sintaktik-stilistika, poetik figura, bo'lakli takror, birikmali takror predikativ takror.*

Annotation: *The article analyzes the fact that the function of repetition is to make the author's speech impressive, to make the idea concrete and, most importantly, to convince the listener or reader.*

Key words: *syntactic-stylistics, poetic figure, segmental repetition, compound repetition, predicative repetition.*

Аннотация: *В статье анализируется тот факт, что функция повтора состоит в том, чтобы сделать авторскую речь впечатляющей, конкретизировать мысль и, главное, убедить слушателя или читателя.*

Ключевые слова: *синтаксико-стилистический, поэтическая фигура, сегментарный повтор, составной повтор, предикативный повтор.*

Takror – asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his – tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi. Takror badiiy adabiyotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik vosita turi bo'lib, so'z ustalari undan tasvir etilayotgan obyektga bo'lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortish maqsadida foydalanganlar.

Takror hodisasi til stilistik vositalarining boyish manbalaridan biridir. Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llanadigan sintaktik-stilistik figura hisoblanadi. Eng mahsuldor ta'sirchan takror ko'rinishi – bu sintaktik takror usulidir. So'z birikmalari, gap bo'laklari va gap turlarining aynan takrorlanishi natijasida sintaktik takror hodisasi yuzaga chiqadi. Sintaktik takror semantik- grammatik-stilistik kategoriya sifatida keng ma'nodagi hodisa bo'lib, bu tor – yakka ma'nodagi takror hodisalarining quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

1. Gap bo'laklari takrori – bo'lakli takror.
2. So'z birikmalari takrori – birikmali takror.
3. Gap takrori – predikativ takror.

1. Bo'lakli takror. Bunda qiyoslanayotgan sintaktik konstruksiyalarning tarkibidagi gapning bir xil bo'lagi aynan takrorlanadi. Masalan:

Daraxtlar qaraydi menga ichikib,



*Daraxtlar oladi mendan xavotir.
Nahot huzuringga shuncha kechikdim,
Ortinga qaragam yuragim og'rir.
(Enaxon Siddiqova "Dunyoga savol")*

*Biri yovuzlikdan qildi xo'b ogoh,
Biri yaxshilikdan olamni gulbog'.
Biri yovuzlikni yerga kirguzdi,
Biri yaxshilikni ko'kka yetkuzdi
(Enaxon Siddiqova "Yaxshilik lutfi")*

2. Birikmali takror qiyoslanayotgan konstruksiyalar tarkibida bir xil so'z birikmasining takrorlanishi natijasida yuzaga chiqadi: Bu bog'da bulbullar sayramay qo'ygan,

*Ayol...
Kuzning singlisiday za'faron xayol,
Kuzning singlisiday sog'inganing ishq.
(Enaxon Siddiqova "Ayol")*

3. Predikativ takror – qiyoslanayotgan konstruksiyalar tarkibidagi bir butun predikativ birlikning bir xilda aynan qo'llanishi:

*Chang bosgan kitoblar bizni kutmoqda,
Chang bosgan kitoblar hayqirar besas.
Bolam!
Senga juda mushtoq, kitoblar!
(Enaxon Siddiqova "Ko'tarilar ko'kka alanga ")*

She'riyatda sintaktik takror nutqning estetik jihatdan ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi. Biroq bo'lak yoki bir butun gapning takrorlanishi natijasida chuqur hayajon, ko'tarinkilik, davomiylik, qat'iylik kabi ma'no ottenkalari ta'kidlanadi. Sintaktik takror fikrni kengaytirishga, unga qo'shimcha belgilar kiritishga, yangi qirralarning ochilishiga yordam beradi:

Sintaktik takror obyektiv olamda mavjud bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi fikrlarimizni tugal va keng ifoda etgani uchun ham, uning yordamida tuziladigan sintaktik konstruksiyalarning biron bir komponentini tushirib qoldirish mumkin bo'lmaydi:¹⁰⁵

Sintaktik takror hodisasining yuzaga chiqishi uchun ikki yoki undan ortiq bir tipdagi sintaktik konstruksiyalar parallel holatda qo'llanishi shart. Bunday konstruksiyalar intonatsion xususiyatlari jihatidan ham bir-biriga yaqin turadi:

Ishqlar unutsa-da qayg'urmadim-a,

¹⁰⁵ Адиллов М.И. Система повторов в азербайджанском языке. Автореф.дис.... д-ра филол.наук. – Баку, 1968, с. 13



Ko'rklar unutsa-da qayg'urmadim-a,
Takrori sintaktik konstruksiya tarkibidagi o'rniga qarab, quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Anaforik takror sintaktik butunlikni tashkil qiluvchi komponentlarning bir xil grammatik formalar bilan boshlanish usuli:

*Sizni qarg'amoqqa yetmaydi kuchim,
Sizni ayblamoqqa yo'q menda asos.
Sizni telbalarday sevgani uchun,
Endi bu yurakdan olaman qasos.
(Enaxon Siddiqova "ALAM")*

2. Epiforik takror sintaktik konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning aynan bir xil grammatik formalar bilan tugallanish usuli:

*Darvozungni ochma ohkim, Samarqand,
Chiqib ketmoqqa shay mohing, Samarqand,
Qalqimasin qasru toqing, Samarqand,
Qovrilib esladim Xonzodabegim,
Ko'zda yosh qo'msadim Xonzodabegim.
(Enaxon Siddiqova "XONZODABEGIM")*

3. Inforik takror sintaktik konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar o'rtasida bir xil grammatik formaning aynan takrorlanish usuli:

*Bir o'y qalqitadi hayhot, ba'zida,
Shu o'y - izg'irindan muzlar yuragim.
(Enaxon Siddiqova "DUNYOGA SAVOL")*

4. Aralash (doiraviy) takror - sintaktik konstruksiya komponentlarida takror turlarining birga qo'llanish usuli:

a) anafora - epifora:

*Hech kim tortib olmas bo'lsin,
Hech kim sotib olmas bo'lsin.
(Enaxon Siddiqova "FARISHTA BOR DURRASIDA")
Kim aytar bu charxi dun ho'kiz ustida turar,
Kim aytarki, tafakkur, ta'miz ustida turar,
(Enaxon Siddiqova "SO'ZNING USTIDA TURAR...")*

b) infora - epifora:

*Gul noz bila ifor taratdi,
Ayol noz bila hayo taratdi.*

Nutqda takror, umuman olganda, ikki vazifani bajarishga xizmat qiladi:

1. Sintaktik munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi vosita funksiyasida. Bu uning sintaktik vazifasidir.

2. Stilistik xususiyatlarni ifoda etuvchi vosita funksiyasida. Bu esa uning stilistik vazifasidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975.
2. А. Мамажонов У. Махмудов. Услубий воситалар. “Фарғона” - 1996
3. А. Мамажонов Қўшма гап стилистикаси. “Фан” нашриёти, 1990 й.
4. Абдураҳмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.
5. Enaxon Siddiqova Sizni dedim. Toshkent “ADABIYOT”, 2021